

### 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,  
mlrd. so'm

**26 092,0**

YAHM o'sish  
sur'ati

**105,0 %**

YAHM deflyator  
indeksi

**111,2 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabrda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 26 092,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	22 344,8	26 092,0	105,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 624,0	25 421,4	104,7
mahsulotlarga sof soliqlar	720,8	670,6	112,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>21 624,0</b>	<b>25 421,4</b>	<b>104,7</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>9 522,6</b>	<b>11 224,8</b>	<b>106,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>4 649,7</b>	<b>5 479,1</b>	<b>104,8</b>
sanoat	3 105,9	3 708,6	105,8
qurilish	1 543,8	1 770,5	102,9
<b>xizmatlar</b>	<b>7 451,7</b>	<b>8 717,5</b>	<b>102,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 174,2	1 379,0	104,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 249,8	1 468,1	106,2
boshqa xizmat tarmoqlari	5 027,7	5 870,4	101,5



## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 238,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	97,4
mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	2,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>44,0</b>	<b>44,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>21,5</b>	<b>21,6</b>
sanoat	14,4	14,6
qurilish	7,1	7,0
<b>xizmatlar</b>	<b>34,5</b>	<b>34,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,4	5,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	5,8
boshqa xizmat tarmoqlari	23,3	23,0

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 44,0%

Sanoat 14,4%

Qurilish 7,1%

Xizmatlar 34,5%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 44,2%

Sanoat 14,6%

Qurilish 7,0%

Xizmatlar 34,2%

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 44,2 % ni, sanoat tarmog'i 14,6 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 34,2 % ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM  
o'rishida tarmoqlarning hissasi (jamiga  
nisbatan % da)

YAHM



5,0

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi



2,7

Sanoat



0,8

Qurilish



0,2

Xizmatlar



0,9

Mahsulotlarga  
sof soliqlar





0,4

YAHM o'rishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,7 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 1,8 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 0,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,9 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'rihi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-sentabrida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,2 % (YAHM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 44,2 %), sanoatda – 105,8 % (14,6 %), qurilishda – 102,9 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 102,8 % ni (34,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 104,9 % (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,2 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,5 % dan (23,0 %) iborat bo'ldi.



■ 2022- yil  
■ 2023- yil

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)



### YAHM



### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




### Sanoat




2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 111,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 113,8 % va sanoatda – 112,9 % qayd etildi.



### Qurilish




### Xizmatlar





## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 18 224,5 mlrd. so‘mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 15 509,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 71,7 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 71,7 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi o‘zgarmagan.

